TASAVVUFDA AYOLNING RUHIY KAMOLOT YO‘LI
(Farididdin Attorning “Tazkirat ul-avliyo” asaridagi Robiya al-Adaviya timsolida)

Islomova Begoyim

Qabul qilindi: 27.10.2025
Ko‘rib chiqildi: 27.10.2025
Tasdiqlandi: 28.10.2025

Kalit so‘zlar:
tasavvuf, Robiya al-Adaviya, Farididdin Attor, ilohiy muhabbat, niyoz, ruhiy kamolot, sof muhabbat, ayol so‘fiylik, “Tazkirat ul-avliyo”, zohir va botin.

Annnotatsiya. Ushbu tezisda tasavvufda ayol so‘fiylarning o‘rni, xususan, Robiya al-Adaviya shaxsiyati va uning ruhiy kamolot yo‘lida tutgan o‘rni Farididdin Attorning “Tazkirat ul-avliyo” asari misolida tahlil etiladi. Tadqiqotda Robiya al-Adaviyaning ilohiy muhabbat konsepsiyasi, dunyoviy istaklardan voz kechish g‘oyasi va sof niyoz yo‘li tasvirlangan hikoyatlar asosida yoritiladi. Asarda keltirilgan “namoz bilan kelish” va “niyoz bilan kelish” ramzlari orqali shariat va haqiqat yo‘llari o‘rtasidagi ruhiy tafovut ochib beriladi. Shuningdek, Robiya al-Adaviyaning dunyoviy nafsdan butunlay voz kechib, Allohga sof muhabbat bilan intilishi, uning tasavvuf tarixidagi o‘ziga xos ruhiy maqomini belgilaydi. Maqolada “Tazkirat ul-avliyo” asaridagi Robiya haqidagi hikoyatlar tahlili orqali ayol so‘fiylikning mohiyati, ruhiy poklanish va ilohiy ishqqa erishish yo‘lining ma’nosi ochib beriladi.

Tasavvuf insonni ruhiy poklab, kamolotga yetkazadigan vositalardan biri. Ilohiy ishqqa yetishish va Haq bilan birlashish yo’lida erkak so’fiylar bilan bir o’rinda ayollar ham faol harakat olib borgan. Avliyo ayollardan biri Robiya al-Adaviya ruhiy poklanish yo’lida harakat qilib, ilohiy muhabbatga erishishni hayotining asosiy maqsadi deb bilgan. U Farididdin Attorning “Tazkirat ul-avliyo” asarida e’tirof etilgan yagona avliyo ayol. Tazkirada keltirilgan hikoyatlar orqali Attor Robiya al-Adaviyaning tasavvufdagi o’ziga xos, manfaatlarsiz sof muhabbat yo’lini ko’rsatib beradi.

Farididdin Attor Robiya al-Adaviyani “Ixlos masturasi” deb atab, Robiya haqida kelgan hikoyatlarning birinchisidayoq uni nima uchun erkak so‘fiylar bilan bir qatorda e’tirof etgani sababini shunday izohlaydi: “Agar Bibi Robiyani erkaklar orasida zikr qilinganining sababini so‘rasalar, unga javob shuki,

Payg‘ambar buyurubdurlar: - Alloh sizlarning suratlaringizga boqmas, balki ko‘ngillaringizga boqar!”[1]

Tazkiraning Robiya al-Adaviyaga bag‘ishlangan ilk hikoyatida Ibrohim Adham va Robiyaning Ka’ba ziyoratiga borishi tasvirlangan. Unga ko‘ra Ibrohim Adham har qadamda ikki rakat namoz o‘qib, o‘n to‘rt yil deganda Ka’baga borsa, baytulloh uni tavof qilish uchun kelayotgan Robiyaning qarshisiga chiqishga oshiqib, u sari ketgan bo‘ladi. Ibrohim Adham bu holga qiziqib savol berganda Robiya:”-Sen namoz bilan kelding, men niyoz bilan keldim”, deya javob beradi. Ushbu hikoyat chuqur tasavvufiy mazmunga ega. Unda tasvirlangan voqea real hayotda sodir bo‘lmagan. Attor hikoyatni yozishda o‘zigacha yozilgan tasavvuf manbalariga tayangan. Hikoya mazmunida Ibrohim Adham va Robiya al-Adaviya misolida zohiriy ibodat va botiniy muhabbat orasidagi farq ifodalangan. Hikoyatdagi “namoz bilan kelish” jumlasi shariat qoidalari hamda e’tiqodiy amallarni ado etib Allohga yaqinlashishni bildirsa, “niyoz bilan kelish” esa Allohga faqat uning o‘zi uchun muhabbat, sadoqat orqali yetishishni bildiradi. “Arabcha-o‘zbekcha lug‘at” (M.Zohidov, 1985)da ham “niyoz” so‘zi “iltijo, duoyi hol, mehr bilan so‘rov, sadoqat ifodasi” kabi ma’nolarni bildirishi yozilgan. Hikoyatda muallif Haqqa erishish uchun faqat tashqi ibodat bilan cheklanmaslik, qalb ham Allohning yodi va zikrida sodiq qolishi lozimligini ta’kidlamoqchi. Shu jihatdan Robiya ichki poklik va qalb ibodatining timsoli sifatida ustunlik qiladi.

“Tazkirat ul-avliyo’’ asarida Robiya al-Adaviyaga bag‘ishlangan qismda pand-nasihat ruhi bilan boyitilgan savol-javobli qismlar ham mavjud. Ulardan birida Robiya al-Adaviya gilam sotib olish uchun bir odamga o‘n to‘rt aqcha pul beradi. U kishi gilamning rangi qanaqa bo‘lishini so‘raganda Robiya:”Hali kelmasidan rangi chiqdi, o‘zi kelsa nimalar chiqadi”, deya javob beradi. U gilam sotib olishdan voz kechadi va berilgan pullarni qaytarib oladi. Hikoyatdagi bu harakatlar chuqur ma’noviy mazmunga ega. Unda berilgan gilam obrazi insoniy ehtiyoj sifatida ko‘rsatilgan bo‘lsa-da aslida majoziy ma’noda nafsni bildirib kelmoqda. Uning rangi esa nafsni oziqlantiruvchi dunyoviy istaklarning ramzidir. Robiya gilam kelsa, bu istaklar yanada ko‘payib, uni Allohning zikri bilan mashg‘ul bo‘lishdan bir lahza ham chalg‘itishidan, bu istaklar qalbini egallashidan qo‘rqadi va uni sotib olishdan voz kechadi. Bu holat Robiya al-Adaviyaning dunyo istaklaridan to‘liq yuz o‘girib, o‘zini butunlay ilohiy ishqqa bag‘ishlaganini ko‘rsatib turibdi.

[1] F.Attor. Tazkirat ul-avliyo.Toshkent, 2013. – 79 b.

Farididdin Attorning "Tazkirat ul-avliyo" asarida Robiya al-Adaviya misolida ayolning ruhiy kamolot yo'li ochib berilgan va uning o'ziga xos tomoni ko'rsatilgan. Diologik matn ko'rinishida kelgan qismlarning birida Robiya Allohni do'zaxdan qo'rqib yoki jannat umidi bilan emas, hech qanday manfaatsiz uning o'zi uchun yaxshi ko'rishini aytadi. Attor Haq muhabbatiga erishish uchun tashqi ibodat bilan bir qatorda qalb pokligi, sof muhabbat ham lozimligini tasvirlaydi. Shu boisdan ham Robiya al-Adaviya tasavvufda ilohiy ishqning soflik namunasi bo'lib tilga olinadi.

ADABIYOTLAR:

1. Farididdin Attor. Tazkirat ul-avliyo. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2013.
2. Zohidov M. Arabcha–o'zbekcha lug'at. — Toshkent: Fan, 1985.